

Date: 1st November-2025

BIZNESDA MOLİYAVIY BARQARORLIK

G'ulomiddinov Husanjon

Millat Umidi universiteti, Fakultet: Xalqaro biznes boshqaruvi
4-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu tezisda turli xil korxonalarda moliyaviy barqarorlikka erishish yo'llari va uzi moliyaviy barqarorlik nima ekanligi to'g'risida aytib o'tilgan. Moliyaviy barqarorlikka ega kuchli korxonalar tarixi va ular misolida ko'rib chiqiladi. Moliyaviy sog'lomlikka erishish uchun qanday yo'llar foydali deb ko'riladi, moliyaviy tashkilotlar haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar:

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi sanoat inqilobi davrida (xvll-xlx asrlar) da paydo bo'lgan. Aynan shu vaqtda kompaniyalar ommaviy ishlab chiqarish, ya'ni bank kreditlari aksiyalar orqali mablag'lar jalb eta boshladilar. Ularning asosiy maqsadlari bankrotlikdan qochib tulov qobiliyatini saqlab qolish edi. xx asr boshlarida esa moliyaviy barqarorlikni baholash tizimlari paydo bo'la boshladi. Ya'ni 1960-1980-yillarda likvidlik, rentabillik, qarz yuklamasi va foyda marjasi asosida korxonaning moliyaviy holatini baholash modellari ishlab chiqildi. Aynan shu davrda Z-score modeli ishlab chiqildi. Bu model Amerikalik iqtisodchi va moliyachi Edward I. Altman tomonidan ishlab chiqildi. Va aynan shu modelning vazifasi korxonaning balans va foyda hisobotidagi ko'rsatkichlar asosida uning moliyaviy holatini tez va aniq baholash uchun xizmat qiladi. Modelning afzalliklari tezkorlik, statistik ishonchliligi yuqori, ko'p tarmoqli korxonalar uchun qo'llanishi mumkin. Kamchiliklari faqat moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asoslanadi, bozor sharoitlari inflatsiya yoki iqtisodiy siyosatni hisobga olmaydi.

Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash mavjud mablag'larni korxonaning strategik maqsadlariga muvofiq ravishda kapital xarajatlariga, aylanma mablag'larga, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar, marketing faoliyati hamda inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirishni anglatadi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi bu korxonaning uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarga erishish, moliyaviy xavflarni minimallashtirish va kapital samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks qarorlar va chora tadbirlar tizimidir.

Kapital strukturasi optimallashtirish Kapital strukturasi optimal nisbatini aniqlash korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omildir. Haddan tashqari qarz olish moliyaviy risklarni oshiradi, lekin o'z mablag'lari yetishmasligi investitsiyaviy imkoniyatlarni cheklaydi.

Likvidlikni ta'minlash strategic moliyaviy rejalashtirishda joriy to'lovlar va qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyati ya'ni likvidlik darajasini segmentatsiyasini amalga oshirish orqali daromadlarni diversifikatsiya qilish strategik muhim hisoblanadi.





Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish Moliyaviy barqarorlik bu korxonaning o'z moliyaviy resurslarini mustaqil boshqarish, majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish va iqtisodiy xavflarga bardosh bera olish qobiliyatidir. Ya'ni korxona qarzlarni o'z vaqtida to'lay oladimi, daromad va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlayaptimi, investitsiya imkoniyatlarini yo'qotmayaptimi shular bilan baholanadi. tahlilning asosiy maqsadi moliyaviy mustaqillik darajasini, qarz yuklamasini, foyda va rentabellik darajasini, risk omillarini aniqlashdan iborat.

Tahlil natijalarini talqin qilish korxona moliyaviy jihatdan qanchalik mustaqil, qarzar darajasi me'yorda yoki yuq, aktivlar foyda keltiryaptimi, barqaror o'sish uchun qanday choralar kerak.

Xulosa

Mamlakatdagi har qanday korxona yoki biznes turi moliyaviy barqarorlikka erishish uchun harakat qiladi. Bunda albatta xarajatlarning daromadlardan o'sib ketmasligi, har doim minimal daromaddan qochib maksimal daromadga erishish yo'llarini izlashadi. Bunday hollarda tahlil, izlanish, va raqpbatchilarni kuzatish va yuqorida aytib o'tgan moliyaviy sog'lomlikni yuzaga chiqarib beradigan modellardan foydalanish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://cyberleninka.ru/article/n/moliyaviy-barqarorlik-tahlili-va-uning-o-ziga-xos-jihatlari>

<https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/630?articlesBySimilarityPage=2>

<https://cdn.uza.uz/2024/01/18/06/44/jLqYsyJ37Nz4hTDUyOapRtHcgLrVPdo1.pdf>